

ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING G'OYAVIY BADIY XUSUSIYATLARI

Toshboyeva Gulira'no

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Filologiya Fakulteti**O'zbek Tili Va Adabiyoti Yo'nalishi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. G'azallardagi ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar, insoniy tuyg'ularning ifodalanishi, muhabbat va ishq mavzularining badiiy tafakkurdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Navoiy ijodidagi falsafiy g'oyalar, ma'naviy intilishlar va estetik go'zallikning o'ziga xosligi yoritiladi. Maqolada Navoiy g'azallaridagi uslubiy vositalar, obrazlar va poetik figurativlik tahlil qilinib, ularning o'quvchi ongiga ta'siri va badiiy qiymati ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, G'azal, G'oyaviy-badiiy xususiyat, Ma'naviyat, Ishq va sevgi, Estetik tafakkur, Poetika, Obraz va figuralar, Falsafiy g'oya, Badiiy ifoda.*

Alisher Navoiy (1441–1501) o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi bo'lib, xususan, g'azal janrida betakror ijod qilgan. Uning g'azallari nafaqat o'sha davrning adabiy-estetik didini aks ettiradi, balki insonning ma'naviy dunyosini, falsafiy tafakkurini, ishq va muhabbat haqidagi qarashlarini chuqur ifodalaydi. G'azal janrida Navoiy o'zining falsafiy g'oyalarini, axloqiy qadriyatlarini va go'zal ifoda vositalarini mukammal uyg'unlashtirgan. G'azallarining g'oyaviy xususiyatlari. Navoiy g'azallarida ma'naviyat markaziy o'rinni egallaydi. U insonni o'zini tarbiyalashga, axloqiy mukammallikka erishishga, ruhiy yuksalishga chorlaydi. Masalan, ishqning faqat tashqi, moddasiz emas, balki ruhiy va ma'naviy qiyofasini ko'rsatadi. Ishq va sevgi mavzusi: Ishq Navoiy g'azallarida falsafiy-ma'naviy qarash sifatida namoyon bo'ladi. Ishq inson ruhini tozalaydi, uning qalbini yuksaltiradi. Navoiy ishqni faqat shaxsiy sevgi emas, balki ilohiy ishq bilan bog'laydi¹. Axloqiy qadriyatlar: G'azallarda adolat, samimiyat, sadoqat, sabr va saxovat kabi insoniy fazilatlar o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, yolg'onchilik, hasad, xiyonat kabi salbiy xususiyatlar tanqid qilinadi. O'z ijodi bilan turkiy tildagi adabiyotlarni dur-u gavharlar bilan jilolagan, uning taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Alisher Navoiy sharq adabiyotini butun dunyoga tanitgan. O'zidan boy adabiy meros qoldirgan ulug' bobomizning asarlari so'z san'atining eng yirik namunalari. Shoirning g'azallari shu yirik namunalariga yaqqol misol bo'la oladi. Alisher Navoiy g'azallarini o'qir ekanmiz, uning badiyatining yuqoriligi, sarmazmunligi, g'oyasining izchilligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaligiga guvoh bo'lamiz. Shoirning g'azallari o'ziga xos san'at olamini tashkil qiladi. So'z san'atining yuksak g'oyalar ifodalangan oliy namunasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Navoiy g'azallarining asosiy g'oyaviy xususiyatlaridan biri —

¹ Valixo'jayev B. O'zbek adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). 1-qism. Sam DU nashri, 2002

ishq mavzusining yetakchi o‘rin tutishidir. Shoir ishqni insonni komillikka yetaklovchi kuch sifatida talqin qiladi². Bu ishq ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: dunyoviy ishq va ilohiy ishq. Dunyoviy ishqda insoniy his-tuyg‘ular, muhabbat va sadoqat aks etsa, ilohiy ishqda insonning Yaratganga bo‘lgan muhabbati va ruhiy poklanishi ifodalanadi. Shu orqali shoir insonni ma‘naviy yetuklikka chorlaydi. Navoiy ijodida tasavvufiy g‘oyalar ham muhim o‘rin egallaydi. G‘azallarda insonning ichki dunyosi, nafs bilan kurashi, sabr-qanoat va ruhiy kamolot masalalari chuqur yoritiladi. Shoir tasavvuf orqali insonni ezgulikka, poklikka va ma‘rifatga undaydi. Bu jihatlar uning g‘azallariga falsafiy chuqurlik bag‘ishlaydi. Bundan tashqari, Navoiy g‘azallarida insonparvarlik g‘oyalari ham yetakchi o‘rinda turadi. Shoir insonni ulug‘laydi, adolat, mehr-oqibat va yaxshilikni targ‘ib qiladi. Uning asarlarida jamiyatdagi illatlar tanqid qilinib, komil inson obrazi ulug‘lanadi. Navoiy g‘azallarining badiiy xususiyatlari ham nihoyatda boy va rang-barangdir. Shoirning tili ravon, obrazli va ta‘sirchan bo‘lib, u so‘z boyligidan mohirona foydalanadi³. G‘azallarda tashbeh, isti‘ora, tajnis kabi badiiy san‘atlar keng qo‘llanadi. Gar jafo qil, gar vafokim, dilsitonim sen mening,

Gar meni o‘ltur v-agar tirguzki, jonim sen mening.

Alisher Navoiy she‘riyatida haqiqiy ishq Alloh taolaga nisbatan b‘lgan muhabbat, uning zotiy sifatlariga intilish jarayonida komillikka erishuv masalalari, Rasululloh Muhammad hazratlariga bo‘lgan sadoqat kabi tasavvufiy mavzular ham qalamga olingan. Bu mavzu faqat alohida g‘azallar zimnida ham o‘z aksini topgan. Shuning uchun bu mavzu qamrovli bo‘lib, uning o‘ziga xos timsol va badiiy tasvir vositalari borki, bu mavzudagi g‘azallarni tahlil va talqin qilish jarayonida ularni e‘tiboridan chetda qoldirish mumkin emas. Alisher Navoiy g‘azallari Sharq mumtoz adabiyotining eng yuksak namunalariidan biri bo‘lib, ularda insoniy kechinmalar, ishq-muhabbat, tasavvufiy qarashlar va hayot falsafasi chuqur badiiy shaklda ifodalangan⁴. Shoir g‘azallarida mazmun va shakl uyg‘unligi yuqori darajada namoyon bo‘ladi, ya‘ni har bir so‘z, obraz va badiiy vosita umumiy g‘oyani ochishga xizmat qiladi. Navoiy g‘azallarining asosiy mavzusi ishqdir. Biroq bu ishq oddiy hissiy tuyg‘u emas, balki ilohiy va ruhiy kamolot sari yetaklovchi kuch sifatida talqin etiladi. Shoir ko‘pincha ma‘shuq obrazini komillik timsoli sifatida ko‘rsatadi. Oshiq esa unga yetishish yo‘lida turli sinovlardan o‘tuvchi, sabr va sadoqatni namoyon etuvchi shaxsdir. Shu jihatdan, g‘azallarda ishq tasavvufiy ma‘noga ega bo‘lib, insonning Haq bilan birlashuv istagini ifodalaydi⁵. Badiiy

² Valixo‘jayev B. Alisher Navoiy she‘riyati (uslubiy qo‘llanma). - Samarqand: SamDU, 2001.

³ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. - T. G‘. G‘. nomidagi Adabiyot va san‘at, 1979.

⁴ Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyoti tarixi (O‘quv qo‘llanma). 1-qism. Sam DU nashri, 2002

⁵ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 1-6 tomlar. - T: Fan, 1986-1990.

mazmunni ochishda Navoiy rang-barang tasviriy vositalardan foydalanadi. Tashbeh, isti'ora, tajnis, tazod kabi san'atlar orqali u fikrni yanada ta'sirchan qiladi. Masalan, yorning husni quyosh, oy, gul kabi timsollar bilan ifodalanadi, oshiqning holati esa sham, parvona yoki bulbul obrazlari orqali tasvirlanadi. Bu obrazlar nafaqat go'zallikni, balki ichki ruhiy kechinmalarni ham ochib beradi. Shoir g'azallarida ramziylik muhim o'rin tutadi. Har bir obraz ortida chuqur ma'no yashiringan bo'lib, uni anglash uchun o'quvchi ma'lum darajada tafakkur qilishi lozim. Masalan, may, mayxona, soqiy kabi obrazlar tashqi ma'noda oddiy ko'rinsa-da, aslida ular ilohiy ishq, ma'rifat va ruhiy mastlik timsoli sifatida talqin etiladi. Navoiy g'azallarining yana bir muhim jihati — insoniy fazilatlarni ulug'lashdir. Shoir sadoqat, vafo, sabr, kamtarlik kabi sifatlarni madh etadi, riyo, xiyonat, jaholat kabi illatlarni esa qoralaydi. Shu orqali u nafaqat badiiy zavq bag'ishlaydi, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lgan asarlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valixo'jayev B. O'zbek adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma).1-qism. Sam DU nashri,2002
2. Valixo'jayev B. Alisher Navoiy she'riyati (uslubiy qo'llanma).- Samarqand:SamDU,2001.
3. Alisher Navoiy. MAT.20 tomlik.1-6 tomlar. -T: Fan ,1986-1990.
4. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati.-T.G'.G'. nomidagi Adabiyot va san'at,1979.